



## IJTIMOY SOHA– TARAQQIYOT SARI YO’LDIR

**Abdulxodiyev Xusanboy Xamidillo o’g’li**

Namangan davlat pedagogika insitituti

Tarix yo’nalishi 2 – bosqich talabasi

**Ilmiy rahbar Tillayev. B**

E – mail. [Xusanboyabdulxodiyev0@gmail.com](mailto:Xusanboyabdulxodiyev0@gmail.com)

Tel. +998 94 072 01 09

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ijtimoiy sohadagi uzgarishlar, ularning kelib chiqishi, yondashuvlari, predmitlari haqida so’z boradi. Ijtimoiy sahada qanday qilib taraqqiyotga erishish mumkinligi atroflicha yoritilgan bo’lib uning asosiy vazifalari ham keltrib o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** Yangi O’zbekiston strategiyasi, Makromuhit, Texnologik Tibbiy yordam, Ijtimoiy guruhlar, Qonun Ustuvorligi, Ijtimoiy munosabatlar.

Jamiyatning har bir bo’g’inida minglab o’zgarishlar, muhimi, yangilanishlar kuzatilyapti. Quvonarlisi shuki, qaysi bir sohani qaramang, imkoniyatlar yaratilmoqda. Aholining har bir qatlami uchun o’zgarishlar, sharoitlar berilmoqda. Bu ham bo’lsa mamlkatimiz fuqarolariga qaratilgan e’tiborning yuksak namunasi desak, mubolag’a bo’lmaydi.

Darhaqiqat, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O’zbekiston strategiyasi” kitobida olib borilgan strategik harakatlar, ularning inson hayotida o’rni va roli, shubhasiz, yanada rivojlantirishda inson omilining ishtiroki xususida batafsil ta’kidlangan. Jumladan, “Adolatli ijtimoiy siyosat” bandida kuchli ijtimoiy siyosat, uning ahamiyati, sog’liqni saqlash tizimidagi muammo va yechimlar, sog’lom turmush tarzi madaniyati, sportga bo’lgan qiziqish, ta’lim, tarbiya, yangi imkoniyatlar, ilm-fan, innovatsion rivojlanish, ayolning jamiyatdagi o’rni, uning jamiyatdagi rolini oshirish, shuningdek, yoshlarning kelajakdagi vazifalari, imkoniyatlari xususida aytib o’tilgan.

Jamiyatimizning ba’zi bir sohalarida og’riqli nuqtalar bor. Xususan, tibbiyot tizimida. Mamlakat rahbari tomonidan sohaning rivojlanishi uchun, undagi turli muammolarning oldini olish, fuqarolarga sharoitlar yaratish, imkoniyatlarni kengaytirish, soha xodimlarining bilim darajasini oshirish maqsadida qator tizimli ishlar yo’lga qo’yildi. Joylarda tibbiyot markazlari tashkil etildi, xodimlar malakasi oshirildi. Bugun transplatatsiya ishlari tashkil etilmoqda, ishonch telefonlari orqali minglab murojatlar hal etilmoqda. Bu esa tibbiyotda ozmuncha bo’lsa ham muammolarning kamayganligi hamda sohada rivojlanishning sezilarli ravishda amalga oshirilayotganligining muhim bo’g’ini hisoblanadi.[1]

**Ijtimoiy muhit** - Insonning yashashi va ishlashi uchun uni o’rab turgan ijtimoiy, moddiy va ma’naviy shartsharoitlar. Muxit keng ma’noda (makromuhit) ijtimoiy-iqtisodiy tizimni — ishlab chiqaruvchi kuchlar, ijtimoiy munosabatlar va tartib-qoidalar mazmunini, jamiyatning ijtimoiy ong va madaniyatini o’z ichiga oladi. Tor ma’nodagi I.m. (mikromuhit) bevosita insonni qurshab olgan oila, mehnat, o’quv va b. guruhlardan iborat. I.m. shaxsning



shakllanishiga va rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Ayni vaqtda insonning ijodiy faolligi, faoliyati ta'sirida I.m. o'zgaradi, bu o'zgarishlar jarayonida odamlarning o'zlari ham o'zgaradi.[2]

### **Ijtimoiy soha tarmoqlarining shakllanishi va rivojlanishi**

Ijtimoiy soha sog'liqni saqlash, ta'lim, uy-joy-kommunal xo'jaligi, madaniyat, sport va turizm, ijtimoiy xizmat ko'rsatish va ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy sug'urta va pensiya ta'minotini mujassamlashtirgan. Ijtimoiy soha tarmoqlari tomonidan taqdim etiladigan ne'matlar faqat bu ne'matlardan foydalanayotgan shaxs manfaati uchungina emas, balki butun jamiyat manfaatlariga ham xizmat qiladi. Masalan, kasalliklarning oldini olish va bemorlarni davolash aholi o'rtasida kasallanish darajasini pasaytiradi va epidemiya xavfini kamaytiradi. Yalpi savodxonlik jamiyat uchun beqiyos imkoniyatlar yaratadi, iqtisodiyotni jadal rivojlanishining hal qiluvchi omillaridan biriga aylanadi. Madaniy faoliyat ijtimoiy qadriyatlarning ommalashishi va ularning odamlar tomonidan o'zlashtirilishiga, jamiyatni jipslashtirishga yordam beradi.

Ijtimoiy soha tarmoqlarining faoliyati davlat va jamiyat tomonidan muttasil baholanib boradi. Jumladan, turli ijtimoiy guruhlar tomonidan tibbiy yordam va ta'lim olish imkoniyati ijtimoiy adolat nuqtayi nazaridan baholab boriladi. Tibbiy xizmatdan va madaniyat muassasalaridan foydalanish, ta'lim olish imkoniyati xalqaro tashkilotlar va ko'pgina davlatlarning konstitustiyalarida insonning ajralmas huquqi sifatida e'tirof etilgan. Ijtimoiy soha tarmoqlarining asosiy xususiyati ular aksariyatining (uy-joy-kommunal xo'jaligini istisno etgan holda) notijorat muassasalar ekanligidir. Ma'lumki tijorat tashkilotlarining faoliyati foyda olishga qaratilgan. Ular o'z faoliyatlarining yo'nalishini mustaqil belgilaydilar, ishlab chiqarilayotgan tovarlar va ko'rsatilayotgan xizmat turlari va shakllarini o'zgartirish huquqiga egalar, shuningdek olingan foydani ta'sischi (mulk egalari) o'rtasida taqsimlaydilar. Notijorat tashkilotlari faoliyatining maqsadi foyda olishga mo'ljallangan bo'lmaydi. Ularning maqomi foyda olingan taqdirda ham buni ta'sischi o'rtasida taqsimlashni man etadi. Foyda faqat muassasani rivojlantirish maqsadlariga sarflanishi mumkin.

Ijtimoiy soha muassasa va tashkilotlarining mulk shakli bo'yicha tasnifi Ijtimoiy soha tarmoqlari shakllanishi va tadrijiy rivojlanishi o'z tarixiga egadir. Azal-azaldan bilim berish, nogironlar, nochor shaxslar, yetimlarga yordam ko'rsatish faqat oilalar, qabilalarnigina emas, shuningdek davlat va diniy tashkilotlarning ham zimmasida bo'lgan. Davlat tomonidan ta'lim muassasalari, harbiylar va keksa kishilar uchun kasalxonalar ochilgan. Diniy tashkilotlar ham o'z mablag'lari hisobiga cherkov maktablari va madrasalar, nogironlar, yetimlar uchun kasalxonalar tashkil qilgan.

### **Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti fanining predmeti**

Iqtisodiyot fani sohalarini serqirra. Jumladan, mehnat iqtisodiyoti mehnat bozori, mehnat resurslari, ish bilan bandlik, mehnat munosabatlari, ishga haq to'lash va xodimlarning daromadlari, mehnat unumdorligi va samaradorligi, mehnatni me'yorlash, personalni boshqarish usullarini o'rganadi. Mehnat sostiologiyasi insonning mehnatga



munosabati, uning ijtimoiy faolligi, ishlab chiqarish jamoalaridagi ijtimoiy muhit, xodimlarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish omillari, ijtimoiy kafolatlar, mehnat nizolarining sabablari, ularni hal etish va boshqa masalalarni tadqiq etadi. Iqtisodiyot fanining bu va boshqa sohalarida qatorida nisbatan yangi, ammo tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan ijtimoiy soha iqtisodiyotini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti ilmiy tadqiqotlar yo'nalishi sifatida XX asr oxirlarida paydo bo'ldi. Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiy o'sishni iqtisodiy yo'naltirilgan ijtimoiy rivojlanish sifatida talqin qilinadi. Uning shakllanishi va amal etishida inson salohiyati markaziy o'rin egallashi tabiiydir. Bu iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanish o'rtasidagi uzviy bog'liqlik bilan izohlanadi.

### **Ijtimoiy soha iqtisodiyotiga yondashuvlar**

Ijtimoiy-texnologik yondoshishda tegishli soha (tibbiy yordam va ijtimoiy xizmat ko'rsatish, ta'lim berish va hokazolar) tarkibi, ularda qo'llaniladigan texnologiyalar, mazkur faoliyat bilan shug'ullanayotgan muassasalarning turi, ular o'rtasidagi aloqadorlik va boshqa masalalar tadqiq etiladi. Ijtimoiy-tashkiliy nuqtayi nazar tegishli faoliyat subyektlarining ijtimoiy roli, ularning ijtimoiy aloqalari, tarkib topgan tuzilmalariga qaratiladi. Ijtimoiy sohadagi iqtisodiy institutlarning amal etishida maxsus manfaat guruhlarining, jumladan shifokorlar, o'qituvchilar, teatr va kino arboblari, sug'urtalovchilar uyush- Ijtimoiy soha iqtisodiyotiga yondashuvlar Texnologik Tibbiy yordam, madaniy xizmat ko'rsatish, ta'lim berish va hokazo Ijtimoiy xizmatlar va yordam ko'rsatish Tashkiliy Manfaat guruhlari (uyushmalar, jamoat tashkilotlari) Ijtimoiy adolat, ijtimoiy totuvlik, ijtimoiy himoyalanganlik, inson qadr-qimmatini hurmat qilish, iqtisodiy va mehnat hayotini insonparvarlashtirish Qonunlar Huquqiy -normativ hujjatlar Madaniy Siyosiy normalari va hokazolarning ahamiyati kattadir. Ular ham ijtimoiy ne'matlar yaratuvchilari, ham bu ne'matlarning iste'molchilari hisoblanadilar. Ijtimoiy-madaniy yondashuvda faoliyatning maqsadi va vazifalarini mujassamlashtiradigan qadriyatlar asosiy rol o'ynaydi. Ushbu qadriyatlar aholiga ijtimoiy ne'matlar va xizmatlar taqdim etish, mazkur sohadagi iqtisodiy institutlarni tanlash bo'yicha davlat siyosati markaziga qo'yiladi. Ularning asosiylari quyidagilardir: ijtimoiy adolat; ijtimoiy totuvlik; ijtimoiy himoyalanganlik; inson qadr-qimmatini hurmat qilish; iqtisodiy va mehnat hayotini insonparvarlashtirish. Siyosiy nuqtayi nazar ijtimoiy soha institutlarini joriy etishda o'z ifodasini topadi. Mazkur sohadagi institutlar hokimiyat tomonidan shakllantiriladi, ularning amal qilishi davlat nazoratida bo'ladi. Bunday institutlar qonunlar qabul qilish, huquqiy-normativ hujjatlarni tasdiqlash orqali tashkil etiladi. Ushbu yangi institutlarni joriy etish yoki tugatishda iqtisodiy omillar: mavjud resurslardan oqilona foydalanish yoki bu resurslarni adolatli taqsimlash prinsipi emas, balki siyosiy omillar hisobga olinadi Ijtimoiy soha iqtisodiyotining bosh maqsadi insonning erkin rivojlanishini, har bir fuqaro va umuman mamlakat butun aholisining munosib turmush darajasi va turmush sifatini ta'minlashdan iboratdir. Bunday maqsadga erishishning vositasi fan va texnika so'nggi yutuqlari hamda inson omilidan samarali foydalanish hisobiga jo'shqin rivojlanayotgan milliy iqtisodiyot hisoblanadi. [3. 16]



Ijtimoiy munosabatlar faqat odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ma'lum turlarida, ya'ni ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo'ladi, bu jarayonda bu odamlar o'zlarining ijtimoiy maqomlari va rollarini hayotga tatbiq etadilar, maqom va rollarning o'zi esa juda aniq chegaralarga va juda qat'iy tartibga ega bo'ladi. Ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy mavqe va maqomlarga o'zaro ishonch hosil qiladi. Masalan, savdodagi asosiy omillar o'rtasidagi munosabatlar sotuvchi va xaridorning bitim (sotib olish va sotish) jarayonida o'zaro ishonchidir.

Shunday qilib, ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy o'zaro ta'sirlar bilan chambarchas bog'liq, garchi bu bir xil narsani bildiruvchi bir xil tushunchalar bo'lmasa ham. Bir tomondan, ijtimoiy munosabatlar odamlarning ijtimoiy amaliyotida (o'zaro ta'sirida) amalga oshiriladi, ikkinchi tomondan, ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy amaliyotning zaruriy sharti – barqaror, me'yoriy ravishda mustahkamlangan ijtimoiy shakl bo'lib, u orqali ijtimoiy o'zaro munosabatlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Ijtimoiy munosabatlar shaxslarga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi – ular odamlarning amaliyoti va umidlarini boshqaradi va shakllantiradi, bostiradi yoki rag'batlantiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy munosabatlar „kechagi“ ijtimoiy o'zaro ta'sirlar, inson hayotining „muzlatilgan“ ijtimoiy shaklidir.

Ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular o'z tabiyatiga ko'ra na obyekt na tabiatdagi obyektlar o'rtasidagi munosabatlar, na shaxslararo munosabatlar kabi subyekt–shaxs boshqa bir butun shaxs bilan o'zaro munosabatda bo'lganda, yoki subyekt-obyekt, o'zaro ta'sir sodir bo'lganda. faqat o'z subyektivligining ijtimoiy begonalashtirilgan shakli (ijtimoiy I) bilan va o'zi ularda qisman va to'liq bo'lmagan ijtimoiy faol subyekt (ijtimoiy agent) sifatida namoyon bo'ladi. „Sof shaklda“ jamoatchilik bilan aloqalar mavjud emas. Ular ijtimoiy amaliyotda mujassamlanadi va doimo obyektlar – ijtimoiy shakllar (narsalar, g'oyalar, ijtimoiy hodisalar, jarayonlar) tomonidan vositachilik qiladi.

Ijtimoiy munosabatlar to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilmaydigan va hatto bir-birining mavjudligini bilmaydigan odamlar o'rtasida paydo bo'lishi mumkin va ular o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar subyektiv majburiyat yoki niyat hissi tufayli emas, balki muassasalar va tashkilotlar tizimi orqali amalga oshiriladi yoki bu munosabatlarni saqlab qolish uchun harakat qilinadi.

**Ijtimoiy munosabatlar** – bu shaxslar, ularning guruhleri, tashkilotlari va jamoalari o'rtasida, shuningdek, ularning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqalar jarayonida yuzaga keladigan turli xil barqaror o'zaro bog'liqliklar tizimi, faoliyati va ularning ijtimoiy maqomlari va ijtimoiy rollarini amalga oshirish.

Ijtimoiy munosabatlarning paydo bo'lishini quyidagicha ta'kidlash mumkin:

- Insonning jamiyat bilan, jamiyatning inson bilan munosabati sifatida;



- Jamiyat vakillari sifatida shaxslar o‘rtasida;
- Jamiyat ichidagi elementlar, tarkibiy qismlar, quyi tizimlar o‘rtasida;
- Turli jamiyatlar o‘rtasida;
- Turli [ijtimoiy guruhlar](#), ijtimoiy jamoalar va ijtimoiy tashkilotlar vakillari sifatida shaxslar o‘rtasida, shuningdek, ularning har biri bilan va ularning har biri ichida shaxslar o‘rtasida munosabatlar Insoning ijtimoiy faoligi kabi jihatlar kiradi. [4]

**Xulosa.** Yuqoridagi tadqiqot natijalardan shuni xulosa qilish mumkinki:

- Ijtimoiy sohaga hattoki davlatimiz rahbari ham alohida ahamiyat berayotgani bu sohaning yuksalayotgani bejiz emas;
  - Ijtimoiy sohaning iqtisodiyotga yondashuvlari ham keltrib o‘tilgan bo‘lib, unda tez tibbiy yordam va xizmat ko‘rsatishlar keltrib o‘tilgan;
- Umumiy xulosa qilib aytkada Ijtimoiy soha Insoning taraqqiyotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda hamda uni rivojlantrish sari qadamlar tashlanmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://insonhuquqlari.uz>
2. [O‘zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. G.Q. ABDURAXMANOVA, X.X. ABDURAMANOV IJTIMOIIY SOHALAR VA INSON TARAQQIYOTI. T.:2018. B 11 – 16.
4. Егоров Е.Д.. *Праксиология: Основы теории. Часть 2. Субъекты отношений*. Москва: Юстицинформ, 2020. [ISBN ISBN 978-5-7205-1625-3..](#)